



FAOL INVESTITSIYA SANOAT RIVOJI VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 27-noyabr kuni xorijiy investitsiyalarni jalb qilish holati va kelgusi yilgi rejalar muhokamasi bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi.

O‘tgan 10 oyda mamlakatimizga 26 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiya kiritilgan. Bu — 2023-yilga nisbatan 1,7 barobar ko‘p. Shundan qariyb 24 milliard dollari to‘g‘ridan to‘g‘ri sarmoyalardir.

Kiritilgan investitsiyalar hisobiga 6 ming 300 ta korxona ishga tushgan, ular 30 trillion so‘mlik qo‘shilgan qiymat yaratgan, eksport 305 million dollarga oshgan. Eng muhimi, bularning natijasida 163 mingta yuqori daromadli ish o‘rni ochilgan.

Noyabr-dekabr oylarida yana 8,6 milliard dollar investitsiya kelishi kutilmoqda.

Tanqidiy ruhda o‘tgan yig‘ilishda investitsiyalarning jalb etilishi hamda loyihalarning bajarilishi har bir hudud va tarmoq kesimida atroflicha tahlil qilindi.

Sakkizta tuman va shaharda investitsiya ko‘rsatkichlari past bo‘lgan. Ayrim tarmoqlarda o‘tgan yilga nisbatan kamaygan. Xalqaro moliya institutlari bilan amalga oshirilayotgan ba‘zi loyihalar sust bormoqda. Xususan, 17 ta loyihadagi loyiha hujjatlarini ishlab chiqish va tender jarayonlari kechikkan.

Yig‘ilishda mutasaddilar yil yakunigacha kutilayotgan natijalar va 2025-yilga mo‘ljallangan rejalar yuzasidan axborot berdi.

Prezident hududlarning investitsiyaviy faolligini yanada oshirish, bu boradagi yondashuvlarni tubdan o‘zgartirish shartligini ko‘rsatib o‘tdi. Masalan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki mamlakatimiz biznes muhitidagi ijobiy o‘zgarishlarni, iqtisodiyotimizning o‘sish sur‘atlarini hisobga olib, xususiy sektor ishtirokidagi loyihalarni ham moliyalashtirishga tayyorligini bildirgan.

Hududlar bunday imkoniyatlardan unumli foydalanishi, mustaqil mablag‘lar ham jalb etishi kerak. Shu bilan birga, investitsiyalarning nafaqat hajmini, balki sifatini ham oshirish zarur. Ya‘ni jalb qilingan har bir dollar sanoatni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilishi lozim.

Yig‘ilishda xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy davlatlardan mablag‘ jalb etish hajmlari hamda yo‘nalishlarini yana bir bor ko‘rib chiqish vazifasi qo‘yildi. 2025-yil uchun loyihalarni tarmoq va hududlar kesimida, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik va xususiy sarmoyalar yo‘nalishida aniq belgilab olish muhimligi ta‘kidlandi.

O‘ZA



O‘ZBEKISTON PREZIDENTI MUROJAATNOMASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning bu gal Oliy Majlisga taqdim etgan Murojaatnomasi avvalgilardan butunlay farqli va o‘ziga xos bo‘ldi. Shu o‘rinda davlatimiz rahbarining o‘tgan haftaning uch kuni davomida Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati birinchi majlislarida so‘zlagan nutqlari Murojaatnoma maqomida ekani haqida so‘z bormoqda.

MUROJAATNOMA MOHIYATI VA TARIXI

Dunyo tajribasi taraqqiy etgan aksariyat mamlakatlarda davlat boshlig‘ining milliy parlament a‘zolari huzurida eng asosiy, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy masalalar hamda jamiyatni demokratik rivojlantirish bo‘yicha Murojaatnoma bilan chiqish amaliyoti mavjud ekanini ko‘rsatadi.

Davlat rahbarining parlamentga Murojaatnomasi dasturiy siyosiy-huquqiy hujjatdir: birinchidan, Murojaatnomada Prezidentning mamlakatni yaqin istiqbolda rivojlantirishga doir strategik yo‘nalishlar bo‘yicha nuqtayi nazari bayon qilinadi; ikkinchidan, siyosiy, iqtisodiy, g‘oyaviy-mafkuraviy qoidalar bilan bir qatorda, parlamentning qonun ijodkorligi faoliyatiga taalluqli aniq takliflar aytiladi; uchinchidan, Prezidentning parlamentga Murojaatnomasi jahon konstitutsiyaviy amaliyotida hokimiyat vakolatlari bo‘linishi prinsipini ta‘minlashga qaratilgan muhim huquqiy institutdir.

Jahon parlamentarizmi amaliyotiga ko‘ra, bunday murojaatnomalarda, bir tomondan, Prezident yakuniga yetgan yilda davlat hokimiyati organlari erishgan yutuq va natijalar haqida hisobot beradi. Ikkinchidan esa kirib kelayotgan yangi yilda davlat va jamiyat hayotining turli sohalarida amalga oshiriladigan aniq chora-tadbirlar, ya‘ni amaliyot dasturini taqdim etadi.

O‘ZBEKISTON PREZIDENTINING PARLAMENTGA MUROJAATNOMALARI: MAZMUNI VA XUSUSIYATLARI

Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda 2017-yildan boshlab ana shu ilg‘or siyosiy-huquqiy amaliyot — davlat boshlig‘ining Oliy Majlis palatalariga Murojaatnoma taqdim etishi an‘anaga kirdi.

Birinchi Murojaatnoma. O‘zbekiston Prezidentining 2017-yil 22-dekabrda milliy parlamentga taqdim etgan ilk Murojaatnomasi mamlakatimiz siyosiy-huquqiy tarixida tom ma‘noda yangi voqea bo‘ldi. Zero, davlat boshqaruvining bunday demokratik usuli, bir tomondan, O‘zbekistondagi keng ko‘lamli va shiddatli islohotlar xalq bilan muloqot prinsipiga g‘oyat uyg‘un va hamohang ekanini namoyon etsa, ikkinchi tomondan, bu zamonaviy yondashuv bugun har birimizning faoliyatimiz samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

Ikkinchi Murojaatnoma. Davlatimiz rahbari 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga taqdim etgan Murojaatnomasida, avvalo, yakuniga yetgan 2018-yilda davlat hokimiyati organlari erishgan yutuq va natijalar haqida axborot berdi. Xususan, “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalari va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili” yakunlari atroflicha ko‘rib chiqildi. 2019-yil O‘zbekistonda “Faol

investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” deb e‘lon qilindi.

Uchinchi Murojaatnoma. Davlatimiz rahbari 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga taqdim etgan Murojaatnomasida “Demokratik islohotlar yo‘li — biz uchun yakka-yu yagona va eng to‘g‘ri yo‘ldir” deb ta‘kidlandi. Harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha keyingi uch yilda qilingan asosiy ishlar haqida ham atroflicha so‘z yuritildi. Mamlakatimizni 2020-yil — “Ilm-ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da va kelgusi 5 yilda rivojlantirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalish va vazifalar belgilab olindi.

To‘rtinchi Murojaatnoma. Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga 2022-yil 20-dekabrda taqdim etgan Murojaatnomasida Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida mamlakatimizdagi keng ko‘lamli va shiddatli demokratik islohotlarning holati va rivojlanish istiqbollari, bu boradagi yutuqlar bilan birga yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar va muammolar, xususan, parlamentimizning islohotlardagi ishtiroki chuqur tahlil etildi. Butun dunyoda kuzatilayotgan iqtisodiy va siyosiy inqirozlar, ziddiyatlar, ekologik muammolar, kuchayib borayotgan radikalizm, ekstremizm, terrorizm, odam savdosi, giyohvandlik kabi xatarlarni inobatga olgan holda markaz va joylardagi vakillik, ijroiya va sud hokimiyati,

investitsiyalar, fuqarolik jamiyati institutlari oldida turgan ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Beshinchi Murojaatnoma. Prezidentimiz 2024-yil 18, 19 va 20-noyabr kunlari parlamentga taqdim etgan Murojaatnomasi doirasida yangi saylangan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining birinchi majlislarida nutq so‘zlagan hamda parlament palatalarining rahbariyati tasdiqlandi, qo‘mitalar va komissiyalar tuzildi, hukumat tarkibi tasdiqlandi.

Beshinchi Murojaatnoma o‘ziga xos xususiyatlarga ko‘ra, bu borada orttirilgan milliy tajriba va ko‘p yillik xorijiy amaliyotdan mutlaqo farq qiladi.

Birinchi xususiyati. Murojaatnomada mamlakatimiz hayotining barcha sohasida yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning ta‘siri va ilk amaliy natijalari chuqur tahlil etildi. Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasini hayotimizning barcha sohasiga teran tatbiq etish istiqbollari belgilab berildi.

Ikkinchi xususiyati. Murojaatnoma parlamentga yaxlit va yagona dasturiy hujjat sifatida taqdim etilmasdan, balki Prezidentning “parlament haftaligi” doirasida uch kun davomida — yangi saylangan Qonunchilik palatasi va Senatning birinchi majlislarida alohida nutqlar tarzida e‘lon qilindi.

Davomi 3-betda

Tashabbus qanot yozdi YASHIL VODIY YASHNAB TURISHI KERAK



Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan bundan uch yil avval boshlangan “Yashil makon” umummilliy loyihasi chinakam xalq harakatiga aylanib ketdi. Har yili bahar va kuz mavsumida daraxt ko‘chatlari ekish an‘ana tusiga kirdi. Uzoqni ko‘zlab qilinayotgan bu ishlarda Prezidentimiz doimo o‘rnak bo‘lib kelmoqda.

Toshkent shahri atrofida “yashil belbog‘” barpo etish loyihasi doirasida daraxt ekish tadbirida ishtirok etgan davlatimiz rahbari “Xalqimiz tabiatni “ona” deydi, yerni, suvni e‘zozlaydi. Buning zamiridagi haqiqat hozirgi ekologik muammolar ta‘sirida yaqqol namoyon bo‘lyapti. Shuning uchun “Yashil makon” loyihasini boshladik. Kelgusi yil nomini ham atrof-muhitni asrash masalasiga bag‘ishladik. Endi bu tashabbuslar keng yoyilishi, ayniqsa, yoshlarimizga chuqur singishi zarur. Har bir

xonadon, har bir korxona tabiatni asrashga hissa qo‘shishi kerak”, dedi. XXI asrga kelib, tabiat musaffoligini saqlash eng dolzarb masalaga aylandi. Havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho‘llanish, global isish tabiiy muvozanat va odamlar sog‘lig‘iga zarar yetkazmoqda. Dunyo mamlakatlari bu borada ko‘plab qiyinchilik va muammolar qarshisida ojiz qolayotgani ham ayni haqiqat.

Davomi 2-betda



VATAN ICHRA “KICHIK VATAN”LI BO‘LISH BAXTI

YOXUD IPOTEKA SIYOSATI YURTDOSHLARIMIZNI UY-JOYLI QILISHDA QANDAY IMKONIYATLAR YARATYAPTI?

Tahlil

To‘kis hayot. Buni har kim har xil tushunishi mumkin. Bizda bu ko‘proq oila, uy-joy bilan bog‘lanadi. Oilamiz tinch, bilimli, hunarli farzandlarimiz yonimizda salomat yursa va eng asosiysi, o‘z uyimiz bo‘lsa, mana shuning o‘zi katta baxt. Omadimiz shundaki, biz bunday sharoit yaratishni islohotlarning eng ustuvor va birlamchi vazifasi deb bilgan davlatda yashayapmiz. Birgina ipoteka bozori tahlili shunday deyishimizga asos bo‘la oladi.

Gap shundaki, odamlarning uy xarid qilish imkoniyatini kengaytirish maqsadida to‘rt yil oldin ipoteka tizimining bozor tamoyillariga asoslangan yangi tartibi joriy qilindi. Unga muvofiq, o‘tgan davrda barcha manbalardan 100 trillion so‘m mablag‘ yo‘naltirildi. Buning hisobiga hududlarda 6 mingta ko‘p qavatli uy barpo etilib, 250 ming oila boshpanali bo‘ldi. Daromadi yuqori bo‘lmagan 45 ming oilaga boshlang‘ich badal va foiz to‘lovi uchun 2,4 trillion so‘mlik subsidiya berildi.

Mamlakatimizning barcha hududlarida uy-joy qurish sur‘ati oshib, ko‘lami yil sayin kengaymoqda. Mustaqillik yillarida uy-joy fondining umumiy maydoni 1,9 barobar oshdi. Aholi sonining o‘sib borishini inobatga olib, bunday ishlar izchil davom ettirilishi o‘tgan hafta Prezidentimiz ishtirokida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishlarda ham alohida qayd etildi.

Davomi 4-betda



Siddiqjon YO‘LDOSHEV,
O‘zbekiston faxriylarini ijtimoiy
qo‘llab-quvvatlash
“Nuroni” jamg‘armasi Qo‘sh tepa
tumani bo‘limi raisi

